

ZAMONAVIY FALSAFADA INSON ONGINING QADRIYATLARGA MUNOSABATI

Ulug'bek Abduxalilovich Azimov
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
f.f.b.f.d.,(PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy falsafiy tafakkur doirasida inson ongining qadriyatlarga bo'lgan munosabati tizimli va tahliliy jihatdan o'rganiladi. Inson ongining shakllanishida axloqiy, estetik, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning tutgan o'rni zamonaviy falsafiy yo'nalishlar - ekzistensializm, fenomenologiya, postmodernizm va gumanistik falsafa nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuningdek, globallashuv, texnologik taraqqiyot va axborot jamiyati sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi hamda inson ongida ularning qayta talqin etilishi masalalari tahlil qilinadi. Maqolada inson ongining faol subyekt sifatidagi roli, qadriyatlarni anglash, baholash va ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish jarayonlari falsafiy umumlashtirish asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda inson ongining qadriyatli yo'nalganligini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inson ongi, qadriyatlar, aksiologiya, zamonaviy falsafa, ong va qadriyatlar munosabati, axloqiy qadriyatlar, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ong, falsafiy tafakkur, globallashuv, qadriyatlar transformatsiyasi, gumanizm, shaxs va jamiyat, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ

Улугбек Абдухалилович Азимов
Международный институт пищевых технологий и инженерии
доктор философии (PhD), доцент

Аннотация: В данной статье систематически и аналитически исследуется отношение человеческого разума к ценностям в рамках современной философской мысли. Подчеркивается роль моральных, эстетических, социальных и культурных ценностей в формировании человеческого сознания с точки зрения современных философских направлений - экзистенциализма, феноменологии, постмодернизма и гуманистической философии. Также анализируются вопросы трансформации ценностей и их переосмысления в человеческом разуме в условиях глобализации, технологического прогресса и информационного общества. В статье раскрывается роль человеческого разума как активного субъекта, процессы понимания, оценки и применения ценностей в социальной практике на основе философского обобщения. Результаты исследования служат важной теоретической основой для понимания ценностной ориентации человеческого разума в современном обществе.

Ключевые слова: человеческое сознание, ценности, аксиология, современная философия, взаимосвязь сознания и ценностей, моральные ценности, культурные ценности, социальное сознание, философское мышление, глобализация, трансформация ценностей, гуманизм, индивид и общество, аксиологическое чувство, аксиологическое восприятие.

THE RELATIONSHIR OF HUMAN CONSCIOUSNESS TO VALUES IN MODERN PHILOSORHY

Ulugbek Abdukhalilovich Azimov
International Institute of Food Technology and Engineering
PhD, Associate Professor

Abstract: *This article systematically and analytically studies the attitude of the human mind to values within the framework of modern philosophical thought. The role of moral, aesthetic, social and cultural values in the formation of human consciousness is highlighted from the point of view of modern philosophical trends - existentialism, phenomenology, postmodernism and humanistic philosophy. It also analyzes the transformation of values and their reinterpretation in the human mind in the conditions of globalization, technological progress and the information society. The article reveals the role of the human mind as an active subject, the processes of understanding, evaluating and applying values to social practice on the basis of philosophical generalization. The results of the research serve as an important theoretical basis for understanding the value orientation of the human mind in modern society.*

Key words: *human consciousness, values, axiology, modern philosophy, the relationship between consciousness and values, moral values, cultural values, social consciousness, philosophical thinking, globalization, transformation of values, humanism, individual and society, axiological feeling, axiological perception.*

KIRISH. Mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi holati o'tish davri sifatida xarakterlanar ekan, uning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarining rivojlanishi tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu jarayon qadriyatlarni qayta baholashni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, o'z umrini o'tab bo'lgan qadriyatlarni inkor etishni inconning umri yoki turmushining eski shakllarini inkor etishga o'xshatish mumkin.

“Qadriyatlar deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim.” [1;12]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy falsafada inson ongining qadriyatlarga munosabati alohida tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Ayniqsa, globallashuv, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va madaniy transformatsiyalar sharoitida shaxsning qadriyatli yo'nalganligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, aksiologik ong tushunchasi insonning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini, axloqiy tanlovlarini va fuqarolik pozitsiyasini tushuntirib beruvchi muhim falsafiy kategoriya hisoblanadi.

Ilmiy-falsafiy jihatdan aksiologik ong - bu shaxsning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni idrok etishi, baholashi va ularga nisbatan ongli munosabatini shakllantiruvchi ong shaklidir. U insonning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasini belgilaydi.

Falsafiy tahlilga ko'ra, aksiologik ong murakkab va ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib, quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Kognitiv komponent - qadriyatlar haqidagi bilimlar, tushunchalar va tasavvurlar majmui. Bu komponent shaxsning qadriyatlarni bilish va anglash darajasini ifodalaydi.

Baholovchi komponent - qadriyatlarni yaxshi-yomon, muhim-ikkinchi darajali, ma'qul-noma'qul sifatida ajratib baholash qobiliyati.

Hissiy komponent - qadriyatlarga nisbatan hissiy munosabat, e'tiqod va ichki ishonchning shakllanishi.

Amaliy-irodaviy komponent - qadriyatlarga asoslangan xatti-harakatlar, qarorlar va ijtimoiy faollik.

Ushbu komponentlarning uyg'unligi aksiologik ongning yetuklik darajasini belgilaydi.

Aksiologik ong ijtimoiy borliq bilan uzviy bog'liqdir. Qadriyatlar jamiyatning tarixiy rivoji, madaniy tajribasi va ijtimoiy ehtiyojlari asosida shakllanadi. Shu sababli aksiologik ong individual hodisa bo'lishi bilan birga, ijtimoiy ongning muhim shakli hamdir.

M.S. Kagan aksiologik ongning g'arb falsafasida keng tarqalgan talqinlarini farqlaydi. Chunonchi, A. Maslou aksiologik ongni har bir tirik mavjudotga xos bo'lgan muayyan tamoyillar tizimi sifatida tavsiflaydi. U o'z konsepsiyasini "inson qadriyatlari haqidagi naturalistik fan" deb nomlagan. Bunda u "biz chumolilar, otlar yoki daraxtlarning yoinki marsliklarning qadriyatlarini qanday o'rgansak, insonning oliy qadriyatlari yoki maqsadlarini ham shunday o'rganishimiz kerak" [2;78], deb hisoblaydi.

M. Rokich fikriga ko'ra, "aksiologik ong va qadriyatli munosabat shaxs yoki jamiyatning muayyan xulq-atvor tarzi yoki pirovard holatni o'zgacha xulq-atvor tarzi yoki holatdan afzal ko'rishidir.[3;51]

Falsafiy nuqtai nazardan, aksiologik ong inson va jamiyat o'rtasidagi dialektik munosabatni ifodalaydi. Jamiyatdagi ustuvor qadriyatlar shaxs ongiga singadi, shaxs esa o'z faoliyati orqali ushbu qadriyatlarning rivojiga yoki transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Aksiologik ongning shakllanishi bir qator omillar bilan belgilanadi:
ijtimoiy-madaniy muhit (an'analar, urf-odatlar, milliy qadriyatlar),
ta'lim-tarbiya tizimi,
oil va ijtimoiy institutlar,
ommaviy axborot vositalari va axborot makoni,
shaxsning ijtimoiy tajribasi va faoliyati.

Bu omillar o'zaro ta'sirda aksiologik ongni bosqichma-bosqich shakllantiradi.

Aksiologik ong shaxsning ma'naviy yetukligi va ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy mezondir. Qadriyatli ongga ega shaxs o'z hayotiy tanlovlarini ongli amalga oshiradi, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaydi va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadi.

Aksiologik ongning rivojlanmaganligi esa qadriyatlar inqirozi, axloqiy beqarorlik va ijtimoiy begonalashuvga olib kelishi mumkin.

Aksiologik ong tushunchasi falsafiy jihatdan inson ongining qadriyatli yo'nalganligini ifodalovchi muhim kategoriya hisoblanadi. U shaxsning

dunyoqarashi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy faoliyatini belgilaydi. Zamonaviy jamiyatda aksiologik ongni shakllantirish ta'lim-tarbiya va ijtimoiy institutlarning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu jamiyatning barqaror va uyg'un rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Qadriyatlarga va qadrlash tuyg'usiga asoslangan aksiologik qarashlar ilmiy jihatdan asoslangan, nazariy tahlil qilingan. U muayyan prinsip asosida to'plangan bilimlar sistemasini ifodalaydi. Ular qadriyatlar sohasida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, bu boradagi nazariyalar, kitob va risolalarda o'z aksini topgan. Tugallangan, ozmi-ko'pmi mukammal, izchil bayon qilingan va qadriyatlar tuyg'usidagi sistemaga ega bo'lgan aksiologik qarashlar majmuasi qadriyatlar nazariyasi deb yuritiladi. Aksiologik qarashlar tarixida qadriyatlar, ularning shakllari va amal qilish xususiyatlari to'g'risida bir qancha nazariya va aksiologik konsepsiyalar mavjud.

Aksiologik ong, o'z navbatida, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg'usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulosa va tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg'usi boshqalarnikidan ko'ra kuchliroq namoyon bo'lishi, uning qalbida qadrlash tuyg'usi bilan bog'liq hissiyot ko'proq "g'alayon" qilishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog'liq mas'uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko'zga tashlanib turadi.

Prezidentimiz shunday ta'kidlaydi: "Bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi".[4;278] Bundan ma'lum bo'ladiki, aksiologik bilishda qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. Qadrlash tuyg'usi aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biridir. U tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish,

mas'uliyat hissini sezish va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Olam va odam o'z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi narsalar, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg'usini uyg'otuvchi asosdir.

Shu ma'noda ob'ektiv voqelik, uning namoyon bo'lish shakllari va ko'rinishlarida bevosita va bilvosita bog'liq bo'lmagan qadrlash tuyg'usi va uning mutlaq sub'ektiv xususiyat ekanligini e'tirof etish qiyin. Zero, qadrlash uchun qadrlanadigan nimadir, ya'ni moddiylik yoki ma'naviylik mavjud bo'lmog'i, qadrlash tuyg'usini uyg'otish uchun esa ana shu tuyg'uning vujudga kelishi uchun sabab bo'ladigan ob'ekt mavjud bo'lishi lozim. Shu ma'noda, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma'nolar qadrlash tuyg'usini shakllantirishda asosiy mezonlar sanaladi.

Aksiologik ong ijtimoiy ong shakllari bilan uzviy aloqador bo'lib, u ijtimoiy ong, tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir. Ijtimoiy ong yordamida jamiyatning o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi.

Ijtimoiy ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, fan, falsafa kabi shakllari farqlanadi. Ijtimoiy ong shakllarining xilma-xilligi ijtimoiy voqelikning turli-tumanligidan, unga tegishli bo'lgan muayyan munosabatlarnigina aks ettirishdan kelib chiqadi. Bu shakllar bir-biridan voqelikni aks ettirish usuli va funksiyasiga ko'ra farq qiladi. Masalan, huquqiy ong normalar, qonunlar, qoidalar vositasida, estetik ong esa badiiy obrazlar yordamida voqelikni aks ettiradi. Bilish, tarbiyalash, qadrlash kabi funksiyalar ijtimoiy ongning barcha shakllariga xos.

Ijtimoiy ong shakllaridan biri axloqiy ong hisoblanadi. Aynan axloq, axloqiy normalarning paydo bo'lishi asta-sekin shakllanib, taraqqiy qilishi insoniylikning shakllanishi uchun zamin yaratdi. Axloq kishilarning bir-biriga, jamiyatga bo'lgan muayyan tarixiy munosabatlarini ifodalaydigan xulq-atvor, odob, qoida va tamoyillar majmuidir. U hamisha konkret-tarixiy xarakter kasb etadi, har bir davrning o'ziga xos axloq mezonlari bo'ladi. Shuning uchun ham ma'lum axloqiy

qadriyatlar tizimida tabiiy hisoblangan hodisalar boshqa axloqiy munosabalar tizimida noo‘rin hisoblanishi mumkin. O‘zbek milliy axloq normalariga ko‘ra, farzandning o‘z ota-onasini, o‘zidan yoshi ulug‘ kishilarni hurmat qilishi qadriyat hisoblanadi.

Estetik his-tuyg‘ular, did, qarashlar, ideallar va nazariyalarning o‘ziga xos, betakror tizimi sifatida namoyon bo‘ladigan estetik ong natijasi sifatida estetik kechinmalar paydo bo‘ladiki, unda idrok etilayotgan ob‘ektlar, hodisa, jarayonlar emotsional shaklda baholanadi. Estetik baholashda kishilar go‘zallik-xunuklik, ulug‘vorlik-tubanlik, fojiaaviylik-kulgililik kabi tushunchalar bilan ish ko‘radilar. Badiiy obrazlar, qahramonlarning kishilar xulqiga ta’siri tom ma’noda ulkan va beqiyosdir.

Dunyoqarashning aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Qadrlash tuyg‘usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qo‘shilishi bilan ijtimoiy sub’ektlarning voqelikka munosabatida yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Bunda aksiologik prinsiplar kishilarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma’naviy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular kishilarning faoliyatlarini amalga oshirishdagi shaxsiy manfaat va maqsadlarida ham ko‘zga tashlanadi.

XULOSA

Biror-bir yo‘nalishga qaratilgan qadrlash tuyg‘usi va bu asosdagi bilimlar, intilish, maqsad hamda manfaatlar kishilarning amaliy faoliyati uchun ma’naviy regulyatorlik vazifasini ham bajaradi. Albatta, bunda qadriyatlar bilan bog‘liq omillar bilan birga bir qancha boshqa jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo kishilarning o‘zaro birlashib, bir maqsadga intilishlarida umumiy faoliyatda yetakchilik qiladigan omil bu, shubhasiz, qadriyatlardir. Masalan, hozirgi davrda O‘zbekiston mustaqilligi hamda uni yanada mustahkamlash vazifalari jamiyatimizda barqarorlikni ta’minlash, demokratik tamoyillarga asoslangan hayot tarzini shakllantirishda oliy qadriyat bo‘lib xizmat qiladi.

Olamga qadriyatli munosabatning shakllanishi har bir kishining komil inson boʻlib yetishishi jarayonining tarkibiy qismi sanaladi. Kishi kamolot sari borar ekan oʻzi, oʻzgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va shu kabilarning haqiqiy qadrini anglab boraveradi. Bu foniyl dunyoning oʻtkinchiligi, umr mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni oʻrgana boradi. Bu esa kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy manzarasini yaratadi. Aksiologik munosabat yakka shaxsgagina tegishli hodisa emas. U ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga umumiy maʼnoda tegishli boʻlishi ham mumkin. Ushbu maʼnoda aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual va ijtimoiy namoyon boʻlish darajalarini, xususiy va umumiy shakllarini koʻrsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тўланов.Ж. Қадриятлар фалсафаси.-Тошкент.: Ўзбекистон. 1998,-Б.12.
2. Маслоу А. К психологии бытия. – Москва: АСТ, 1997.–С.78.
3. Каган М.С. Философская теория ценности – СП(б): 2005 – С. 51
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. – В 278.
5. Азимов У. Ёшларнинг демократик ислохотларга аксиологик муносабатини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари. Ф.ф.б.ф.д.,(PhD) диссертацияси. Наманган-2022.
6. Azimov U., Umurzakov A. HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 354-355.
7. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.